O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

O'ZBEKISTON DAVLAT SAN'AT VA MADANIYAT INSTITUTI

"TASDIQLAYMAN"
O'zDSMI rektori v.v.b.
_____________ E.U.Shermanov
2023-yil "____" ______________

Ro'yxatga olindi: № 60320400. 1.08
2023-yil "31"-avgust

# NAVOIYSHUNOSLIK
# O'QUV DASTURI

**Bilim sohasi:** 100 000 - Ta'lim
200 000 - San'at va gumanitar fanlar
300 000 - Ijtimoiy fanlar, jurnalistika va axborot

**Ta'lim sohasi:** 110000 - Ta'lim
210000 - San'at
320 000 - Jurnalistika va axborot

**Ta'lim yo'nalishi:**
60112400 - Professional ta'lim (60211900-Xalq ijodiyoti vokal ijrochiligi)
60112400 - Professional ta'lim (60211900-Xalq ijodiyoti cholg'u ijrochiligi)
60210100 - Texnogen san'ati (kino, televideniye va radio ovoz rejissorligi)
60210200 - Kino-teleoperatorlik
60210300 - San'atda animatsiyaviy va multimediyaviy loyihalash
60211000 - San'atshunoslik (sahna va ekran san'ati dramaturgiyasi)
60211000 - San'atshunoslik (kino san'ati tanqidiva tahlili)
60211000 - San'atshunoslik (teatrshunoslik)
60211100 - Aktyorlik san'ati (dramatik teatr va kino aktyorligi san'ati)
60211100 - Aktyorlik san'ati (qo'g'irchoq teatr aktyorligi)
60211100 - Aktyorlik san'ati (musiqali teatr aktyorligi)
60211100 - Aktyorlik san'ati (estrada aktyorligi san'ati)
60211200 - Rejissyorlik (kino va televideniye rejissorligi)
60211200 - Rejissyorlik (estrada va ommaviy tomoshalar rejissorligi)
60211200 - Rejissyorlik (musiqali teatr rejissorligi)
60211700 - Grim san'ati
60211800 - San'at sohasida prodyuserlik
60211900 - Xalq ijodiyoti (ashula va raqs)
60211900 - Xalq ijodiyoti (folklor va etnografiya)
60212000 - Madaniyat va san'at muassasalarini tashkil etish hamda boshqarish
60320400 - Kutubxona-axborot faoliyati (kutubxonachilik va bibliografiya)
60723100 - Qo'g'irchoqlar ishlab chiqarish texnologiyasi.

TOSHKENT – 2023

| Fan/modul kodi<br>Navoiyshunoslik NK 20012 | O'quv yili<br>2023/2024 | Semestr<br>5 | ECTS-Kreditlar<br>2 | |
|---|---|---|---|---|
| Fan/modul turi<br>Majburiy | Ta'lim tili<br>o'zbek/rus | | Haftadagi dars soatlari<br>2 | |
| 1. | Fanning nomi | Auditoriya mashg'ulotlari (soat) | Mustaqil ta'lim (soat) | Jami yuklama (soat) |
| | Navoiyshunoslik | 30 | 30 | 60 |

2.

## I. Fanning mazmuni

Fan dasturi buyuk mutafakkir shoir Alisher Navoiyning hayoti va ijodi haqidagi eng muhim ma'lumotlar, uning asarlari badiiyati, shoir lirikasi, xususan, "Xazoyin ul-maoniy" kulliyoti tarkibiga kiruvchi janrlarni, Navoiy dostonlari va nasriy asarlarini o'qitish bilan bog'liq masalalarni qamrab olgan.

Alisher Navoiy ijodi, uning o'zbek adabiyotidagi o'rni, asarlari badiiyati bo'yicha aniq va mukammal ma'lumotga ega bo'lishi talaba malakasini belgilovchi mantiqiy asos vazifasini o'taydi. Shuning uchun oliy o'quv yurtlarida filologik ta'limni yo'lga qo'yishda ushbu fan muhim ahamiyat kasb etadi. "Navoiyshunoslik" fanini to'liq o'zlashtirish bakalavriat bosqichi talabalarining bilimlarini mustahkamlash barobarida mustaqil ilmiy tadqiqot olib borishi uchun zamin hozirlaydi.

## II.Asosiy nazariy qism (ma'ruza mashg'ulotlari)
## II.I. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi

### 1-mavzu. Alisher Navoiy ijodining o'rganilishi. Hayotiga doir muhim ma'lumotlar

Navoiyshunoslik tarixidan. XX asr o'zbek navoiyshunosligi. Alisher Navoiy ijodining ilmiy mezonlar asosida o'rganilishi. Navoiy ijodining xorijda tadqiq etilishi. Navoiyshunoslik muammolari.

*Alisher Navoiyning hayoti va ijodiy faoliyati.* Shoir hayoti va ijodining manbalari. Navoiy haqida shoirning o'z asarlaridagi ma'lumotlar. Xondamirning "Makorim ul-axloq", Zayniddin Vosifiyning "Badoye' ul-vaqoye'" asarlari. Zamondoshlarining asarlarida, XVI-XIX asrlardagi tazkira, lug'at, tarixiy va badiiy asarlarda keltirilgan ma'lumotlar.

### 2-mavzu. Alisher Navoiyning lirik merosi. Devonlari

Ilk devon. Oqquyunli muxlislar devoni. "Badoye' ul-bidoya" va "Navodir un-nihoya" devonlari. "Badoye' ul-bidoya" debochasida devon tartib berish masalalari.

*"Xazoyin ul-maoniy" – lirik qomus sifatida.* Kulliyotning yaratilish tarixi, tarkibiy tuzilishi. Debochada kulliyotning tuzilishi va devonlarning yaratilishi bilan bog'liq masalalar. Kulliyotdagi devonlar tartibi va ularning o'ziga xos xususiyatlari. Navoiy g'azallarini sharhlash mezonlari. Devonlardagi kichik janrlarni sharhlash.

### 3-mavzu. Xamsanavislik an'anasi va Alisher Navoiy "Xamsa"si. "Hayrat ul-abror", "Farhod va Shirin" dostonining timsollar olami

Xamsachilik tarixidan. Nizomiy Ganjaviy va Xisrav Dehlaviy "Xamsa"lari. Hirot adabiy muhitida xamsanavislik. Abdurahmon Jomiy "Xamsa"sining g'oyaviy-badiiy xususiyatlari. Alisher Navoiy beshligi birinchi turkiy "Xamsa" sifatida.

*"Hayrat ul-abror"* mundarijaviy doston sifatida. Dostonning tarkibiy tuzilishi, syujet tartibi va kompozitsiyasi. Maqolat va hikoyatlar tahlili. Falsafiy va tasavvufiy talqinlar. Basmala bobining qiyosiy tahlili. Hamd, munojot, na't va me'rojnomalardagi poyetik tafakkur. Dostonda ko'ngil obrazining talqini. Uch hayrat sharhi.

*"Farhod va Shirin"* dostonining muxtasar mundarijasi va timsollar olami. Farhod – ilohiy ishq yo'liga kirgan soliki majzub timsoli. Shirin – ilohiy mazhar. Dostondagi ramziy timsollar. Doston badiiyati.

### 4-mavzu. "Layli va Majnun", "Sab'ai sayyor", "Saddi Iskandariy"dostonlarida muallif badiiy niyatining ifodalanishi

*"Layli va Majnun"* – pok va yuksak muhabbat ifodasi. Dostonning yaratilish tarixi. Asardagi bosh qahramonlar hayoti. Dostonning g'oyaviy mundarijasi, timsollar olami. Majnun – ilohiy ishq yo'lidagi majzub timsoli. Dostondagi boshqa timsollar.

*"Sab'ai sayyor"* dostonidagi hikoyatlar tahlili. Shoh Bahrom timsoliga xos fazilat va ziddiyatlar. Dilorom – iste'dodli san'atkor, vafodor yor timsoli. Doston kompozitsiyasi. Asarning badiiy xususiyatlari. Muqaddimaviy boblar va doston mundarijasi orasidagi tanosub. Dostondagi yetti raqamining "sir"lari.

*"Saddi Iskandariy"* – falsafiy-ta'limiy, ijtimoiy-siyosiy va ma'rifiy asar. Dostonning g'oyaviy-badiiy xususiyatlari. Tarkibiy tuzilishi. Dostonda adolat timsoli. Hamd va na'tdagi bayon vositalarining doston mundarijasi bilan uyg'unligi.Tarixiy haqiqat va badiiy taxayyul.

**5-mavzu. "Lison ut-tayr" – irfoniy doston namunasi sifatida**

Doston tarkibidagi hikoyatlar. Dostonda tasavvuf falsafasi va axloqiga munosabat. Dostondagi vodiylar tavsifi. Dostonning ramziy timsollari olami. Simurg' – najot timsoli.

**6-mavzu. Alisher Navoiyning ilmiy, ma'rifiy merosi**

Adabiyotshunoslik asarlari."Mufradot" – muammo janriga bag'ishlangan asar. "Majolis un-nafois" – turkiy tildagi birinchi tazkira sifatida. "Mezon ul-avzon"da aruz nazariyasiga doir masalalarning yoritilishi. Alisher Navoiy – tilshunos. "Muhokamat ul-lug'atayn"da ikki til mubohasasi. "Muhokamat ul-lug'atayn" – turkiy til taraqqiyotini nazariy jihatdan boyitgan asar sifatida. Asarda turkiy va forsiy tillar fonetika, leksika va morfologiya doirasida o'zaro qiyoslanganligi.

*Tarixiy asarlari.* "Tarixi muluki ajam" va "Tarixi anbiyo va hukamo" – mumtoz tarixnavislik manbasi sifatida.

*"Mahbub ul-qulub" asari.* Tarkibiy tuzilishi: ijtimoiy tabaqalar, axloqiy masalalar, pand-hikmatlar. Asarning badiiy xususiyatlari.

**7-mavzu. Alisher Navoiyning diniy va tasavvufiy asarlari**

"Nasoyim ul-muhabbat" tazkirasida tasavvuf masalalari. "Vaqfiya" asarida Alisher Navoiyning ijtimoiy faoliyati bilan bog'liq masalalar. Asar shoirning xayriya ishlari va vaqf qildirgan mulk, yerlari haqida ma'lumot berish bilan birga Navoiyning sulton Husayn Boyqaro saroyidagi ijtimoiy faoliyatini aks ettiruvchi qimmatli manba sifatida ham muhim ahamiyatga ega ekanligi. "Munojot"da tavba-tazarru va Haqqa bo'lgan ishq ohanglari. "Munojot" asari poyetikasi.

**III. Seminar mashg'ulotlari buyicha ko'rsatma va tavsiyalar**

Seminar mashg'ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:

1. Navoiy hayoti va ijodi zamondoshlari xotirasida (Xondamirning "Makorim ul-axloq" asari misolida).
2. Navoiy g'azallari tahlili.
3. "Hayrat ul-abror", "Farhod va Shirin" dostonlarida yetakchi ti
4. "Layli va Majnun", "Sab'ai sayyor", "Saddi Iskandariy" dosto
5. "Lison ut-tayr" dostonidagi vodiylar tavsifi, hikoyatlar tahlili.
6. "Nasoyim ul-muhabbat" asarida shayxlar va orifa ayollar tims
7. "Muhokamat ul-lug'atayn" va zamonamiz.
8. "Mahbub ul-qulub"da hikoyatlar.

Seminar mashg'ulotlari multimedia vositalari bilan jihozlangan auditoriyada o'tkazilishi lozim. Mashg'ulotlar faol va interfaol usullar yordamida o'tilishi, mos ravishda munosib pedagogik va axborot texnologiyalari qullanishi maqsadga muvofiq.

Seminar darslari davomida talabalar kichik guruhlarda ishlagan holda taqdimotlar qiladilar. Har seminar darsida bir guruh o'z taqdimotini namoyish etadi. Taqdimotlarda slaydlar, filmlar, posterlar, rasmlar, va artefaktlardan foydalanish talab etiladi.

**IV. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar**

Mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan mavzular:

1. Navoiy tarjimayi holini o'rganish.
2. Xondamirning "Makorim ul-axloq" asarini o'qish.
3. Navoiy g'azallaridan 10 tasini yodlash va ularni g'oyaviy-badiiy jihatdan tahlil qilish.
4. "Hayrat ul-abror" dostonini o'qish.
5. "Farhod va Shirin" dostonini o'qish.
6. "Layli va Majnun" dostonini o'qish.
7. "Sab'ai sayyor" dostonini o'qish.
8. "Saddi Iskandariy" dostonini o'qish.
9. "Lison ut-tayr" dostonini o'qish.
10. "Majolis un-nafois"dagi turkiy shoirlar haqidagi ma'lumotlarni to'plash.
11. "Xamsat ul-mutahayyirin"da Abdurahmon Jomiy siymosi.
12. "Tarixi anbiyo va hukamo"da payg'ambarlar tavsifi.
13. "Arba'in", "Nazm ul-javohir"dagi to'rtliklardan yodlash.
14. "Nasoyim ul-muhabbat"dagi hikoyatlardan o'qish.
15. "Mahbub ul-qulub"dagi hikmatlardan yodlash.

| | |
|---|---|
| | Mustaqil o'zlashtiriladigan mavzular bo'yicha talabalar tomonidan referatlar tayyorlash va uni taqdimot qilish tavsiya etiladi. |
| 3. | **V. Ta'lim natijalari / Kasbiy kompetensiyalari**<br>**Talaba bilishi kerak:**<br>– Alisher Navoiyning fenomeni, shaxsiyati, hayot yo'li, tafakkur dahosi, o'zbek tili va adabiyoti, millat madaniyati rivojiga qo'shgan hissasi, ilmiy va ijodiy faoliyati, o'zbek davlatchiligi va ma'naviyati tarixida tutgan o'rni to'g'risida ***tasavvurga ega bo'lishi***;<br>– Navoiy asarlarining o'rganilish tarixi, mazmun-mohiyati, xamsachilik an'anasi, g'azallarning o'ziga xos jihatlari, Navoiy ijodida qo'llanilgan badiiyat unsurlari, ramz, timsol va obrazlar mohiyatini anglash, Navoiy asarlari tili, forsiy merosining badiiyati, ilmiy-filologik, tarixiy, irfoniy, diniy-falsafiy asarlarining o'ziga xos jihatlari, ma'no qatlamlari, o'zbek va jahon adabiyotining keyingi rivojiga ko'rsatgan ta'siri bilan bog'liq ***bilimlarga ega bo'lishi;***<br>– talaba Navoiy asarlarini o'rganish orqali mumtoz adabiyot namunalarini to'g'ri tahlil va talqin qila olish bilimi, malakasi va ***ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak.*** |
| 4. | **VI. Ta'lim texnologiyalari va metodlari:**<br>- interfaol aqliy hujum;<br>- mantiqiy fikrlash, tezkor savol-javoblar;<br>- guruhlarda ishlash;<br>- taqdimotlarni qilish;<br>- jarayonga asoslangan metod. |
| 5. | **VII. Kreditlarni olish uchun talablar:**<br>Joriy, oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat bo'yicha yozma ishni muvoffaqiyatli topshirish. |
| 6. | **Asosiy adabiyotlar**<br>1. Sirojiddinov Sh., Yusupova D., Davlatov O. Navoiyshunoslik. Darslik. – T.: TAMADDUN, 2018.<br>2. Sirojiddinov Sh. Alisher Navoiy. Manbalarning qiyosiy-tipologik, tekstologik tahlili. – T.: Akademnashr, 2011.<br>3. Yusupova D. O'zbek mumtoz va milliy uyg'onish adabiyoti (Alisher Navoiy davri). O'quv qo'llanma. – T.: TAMADDUN, 2016.<br>4. Alisher Navoiy: qomusiy lug'at. 1-2-jildlar /Masul muharrir Sh.Sirojiddinov. – T.: Sharq, 2016.<br>**Qo'shimcha adabiyotlar**<br>1.Mirziyoyev Sh. Erkin va farovon demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. – T.: O'zbekiston, 2016.<br>2.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi" to'g'risidagi Farmoni ("Xalq so'zi", 2017-yil, 8-fevral).<br>3.Mirziyoyev Sh. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash – yurt taraqqiyotivaxalqfarovonligininggarovi. – T.: O'zbekiston, 2017.<br>4.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori "Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari" to'g'risida ("Xalq so'zi" 2017-yil, 21-aprel).<br>5.Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to'plami. 20 jildlik. 1-20 jildlar. –T. Fan, 1987-2003.<br>6.Ishoqov Yo. Navoiy poyetikasi. – T.: Fan, 1983.<br>7.Komilov N. Tasavvuf. – T.: Movarounnahr - O'zbekiston NMIY, 2009.<br>8.Rahmonov N. O'zbek adabiyoti tarixi, o'quv qo'llanmasi "Sano standart" nashriyoti, 2017.<br>9.Rahmonov N. O'zbek adabiyotini davrlashtirish masalalari T.: "MUMTOZ SO'Z" 2016<br>10.Hayitmetov A. Navoiy lirikasi. – T.: O'zbekiston, 2016.<br>**Axborot manbalari**<br>1.www.gov.uz – O'zbekiston Respublikasi hukumat portali<br>2.www.lex.uz – O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi<br>3.www.alishernavoiy.uz<br>4.www.ziyo-net.uz<br>5.www.literature.uz<br>6.www.kutubxona.uz |
| 7. | **Fan dasturi O'zbekiston davlat san'at va madaniyat institutida ishlab chiqilgan va tasdiqlangan.** |
| 8. | **Fan/modul uchun mas'ullar:**<br>D.T.Jumayeva – O'zDSMI, "O'zbek tili va adabiyoti" kafedrasi dotsenti, f.f.n (PhD).<br>Z.I.Kozimova – O'zDSMI, "O'zbek tili va adabiyoti" kafedrasi |

| | |
|---|---|
| | o'qituvchisi. |
| 9. | **Taqrizchilar:**<br>B.To'xliyev – ToshdSHI, "Mumtoz filologiya" kafedrasi professori, filologiya fanlari doktori (turdosh OTM)<br>K.Mullaxo'jayeva – ToshDO'TAU, "Adabiyotshunoslik" kafedrasi dotsenti, filologiya fanlari nomzodi. |